



_____ hokimligi
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ maktabgacha va
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
_____ning
20__-20__-o'quv yilida 5-sinflar uchun
ona tili fanidan IV chorak

DARS
ISHLANMALARI

20__-20__-o‘quv yili uchun tuzilgan 5-sinf ona tili fanidan IV chorak
taqvimiy mavzu rejasi

№	Mavzu nomi	Soat	Sana	Izoh
1.	Nutqiy mavzu doirasida og‘zaki suhbat. Iboralar va ularning ma’nolari	1		
2.	“Yondaftarning yordami” matni ustida ishlash	1		
3.	Ikkinchi darajali bo‘laklar	1		
4.	“Bola Alisher” matni ustida ishlash	1		
5.	Matn ustida ishlash. Ikkinchi darajali bo‘laklar	1		
6.	Eskirgan so‘zlar	1		
7.	“Qanot qoqqan orzular” matni ustida ishlash.	1		
8.	Iboralar va ularning ma'nolari	1		
9.	Matn ustida ishlash	1		
10.	Bo‘g‘in ko‘chirish qoidalar.	1		
11.	Olmoshlar. Kishilik olmoshlari	1		
12.	Audiomatn bilan tanishish. Tinglab tushunishga oid topshiriqlarni bajarish	1		
13.	“Orzular sari dadil qadamlar” loyihasi taqdimoti	1		
14.	Matnni maqollar bilan boyita olish. “Bolalik dunyosi – beg‘ubor dunyo” mavzusida matn yozish	1		
15.	Yozma ishlar taqdimoti va tahlili	1		
16.	Bob yuzasidan takrorlash	1		
17.	So‘zlashuv uslubi. Nutqiy mavzu doirasida og‘zaki suhbat	1		
18.	9-nazorat ishi	1		
19.	“Kitob haqida” matni ustida ishlash	1		
20.	Matn ustida ishlash	1		
21.	Yangi so‘zlar. Mustaqil va yordamchi so‘zlar	1		
22.	“Yangi kitob” matni ustida ishlash	1		
23.	Tovush tushishi hodisasi	1		
24.	Ko‘chirma gap va ularda tinish belgilarining qo‘llanishi	1		
25.	“Kitob tabiblari” matni ustida ishlash	1		
26.	Matn ustida ishlash. Matnni kichik qismlarga ajrata olish. Taqlid so‘zlar	1		
27.	Videolavha bilan tanishish. Tinglab tushunishga oid topshiriqlar ustida ishlash	1		
28.	Xabar matni yozish	1		
29.	“Zukko kitobxon” loyihasi taqdimoti	1		
30.	Bob yuzasidan takrorlash	1		
31.	10-nazorat ishi	1		
32.	Yakuniy dars. Ta’til topshiriqlari	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Nutqiy mavzu doirasida og‘zaki suhbat. Iboralar va ularning ma’nolari

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: o‘quvchilarga yangi mavzu bo‘yicha bilim berish, grammatik qoidalarni o‘rgatish, so‘z boyligini oshirish, to‘g‘ri va ravon yozishga o‘rgatish va og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalarini shakllantirish.

Tarbiyaviy: ona tiliga hurmat ruhida tarbiyalash, vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish, jamoada ishlash madaniyatini tarbiyalash, intizom va mas’uliyat hissini oshirish va milliy qadriyatlarga hurmat uyg‘otish.

Rivojlantiruvchi: mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, mantiqiy tafakkurni o‘stirish, nutq madaniyatini rivojlantirish, ijodiy yondashuvni shakllantirish va tez va to‘g‘ri fikr bayon qilish ko‘nikmasini rivojlantirish.

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

– dars va mashg‘ulot jarayonlarida faol ishtirok etish, turli vaziyatlarda o‘zini tuta olish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish

hamda foydalanish kompetensiyasi:

– shaxsiy rejalarni tuza olish, turli jadvalli ma’lumotlarni o‘qiy olish, hisobkitob bilan ish yuritish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

Dars uslubi: tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, kichik guruhlarda ishlash, ko‘rgazmali va boshqalar.

Dars metodi: an’anaviy tushuntirish metodi, savol-javob metodi, aqliy hujum, guruhlar bilan ishlash, juftlikda ishlash, mustaqil ish metodi.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vahti
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Rasmlarni kuzating va savollarga javob bering.

1. Rasmdagi bola nimalarni orzu qilmoqda?

2. Orzularingiz haqida gapirib bering.

3. Orzularingizga yetishish uchun sizda qanday imkoniyatlar bor? Ulardan qay darajada foydalana olyapsiz?



Hikmatli soʻzlar bilan tanishing va mazmunini tahlil qiling.

Hayotda muvaffaqiyatga erishish uchun uch narsa kerak: diqqat, intizom va harakat.

Jaloliddin Rumi

Orzu qila oldingizmi, demak, qoʻlingizdan keladi.

Uolt Disney

Butun umringiz davomida orzungizga intiling va vaqtingizni behuda sarflamang.

Chunki havoga uchgan vaqt sizdagi barcha yaxshi narsalarni tortib oladi.

Aflotun

Iboralarni izohlari bilan moslashtirib yozing. Izohi berilmaganlarini oʻzingiz izohlang.

1	temirni qizig'ida bosmoq	A	eplamoq, eplab bajarmoq
2	uddasidan chiqmoq	B	har ishni abjirlik bilan bajarmoq
3	yulduzni benarvon urmoq	D	muvaffaqiyatli bo'lmoq
4	ishi o'ngidan kelmoq	E	biror ishni bajarishga kirishmoq
5	bel bog'lamoq	F	biror ishni ayni vaqtida qilmoq
6	ro'yobga chiqarmoq	G	...
7	jonini jabborga bermoq	H	...

Yuqorida berilgan iboralar yordamida “Orzu va imkon” mavzusi doirasida gaplar tuzing. Namuna: Orzularingiz tezroq ro'yobga chiqishini istasangiz, vaqtdan unumli foydalaning.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash: o'quvchilarga mavzu yuzasidan savol-javob o'tkazish, darslikdagi mashqlarni og'zaki va yozma bajarish, guruhlarda ishlash orqali misollar tuzish.

V. Darsni yakunlash: o'quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: Yaqinlaringiz bilan orzu va uning ro'yobi mavzusida suhbatlashing. Suhbat mazmunini qisqa shaklda daftaringizga yozib oling.

Suhbatdoshingizga quyidagi savollar bilan murojaat qilishingiz mumkin:

1. Yoshligingizda qanday orzungiz bo'lgan?
2. Orzungizni amalga oshirish uchun sizda qanday imkoniyatlar bor edi? Buning uchun qanchalik harakat qilgansiz?
3. Orzuning maqsadga aylanishi uchun nimalar qilish kerak?
4. Yoshligingizga qaytib qolsangiz, yana nimalarni orzu qilgan bo'lar edingiz?

O'IBDO': _____ (imzo) _____ (sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: “Yondaftarning yordami” matni ustida ishlash

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: o‘quvchilarga yangi mavzu bo‘yicha bilim berish, grammatik qoidalarini o‘rgatish, so‘z boyligini oshirish, to‘g‘ri va ravon yozishga o‘rgatish va og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalarini shakllantirish.

Tarbiyaviy: ona tiliga hurmat ruhida tarbiyalash, vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish, jamoada ishlash madaniyatini tarbiyalash, intizom va mas’uliyat hissini oshirish va milliy qadriyatlarga hurmat uyg‘otish.

Rivojlantiruvchi: mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, mantiqiy tafakkurni o‘stirish, nutq madaniyatini rivojlantirish, ijodiy yondashuvni shakllantirish va tez va to‘g‘ri fikr bayon qilish ko‘nikmasini rivojlantirish.

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

– darslik materiallari va undan tashqari manbalar (televizor, radio)dan ma’lumotlarni topa olish.

O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi :

– mustaqil o‘qib-o‘rganish, bilimini, ko‘nikmalarini mustaqil ravishda muntazam oshirib borish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

Dars uslubi: tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, kichik guruhlarda ishlash, ko‘rgazmali va boshqalar.

Dars metodi: an’anaviy tushuntirish metodi, savol-javob metodi, aqliy hujum, guruhlar bilan ishlash, juftlikda ishlash, mustaqil ish metodi.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Oila a'zolaringizdan kimlar yondaftar ishlatadi? Unga nimalar yozib boriladi?

Yondaftarning yordami

Aziz do‘stim, hech yondaftar tutganmisiz?! Yo‘q, deysizmi? O‘ylaymanki, bugungi suhbatimizdan keyin shunday qilasiz. Chunki hozir sizga yondaftar tutish kishiga qanchalik asqatishini tushuntirib beraman.

Men ancha yillardan beri yondaftar tutaman. Har kecha uyqudan oldin ertaga nimalar qilishimni yozib qo'yaman, ertasiga kechqurun ularning qaysilarini bajarganimni belgilab chiqaman. Mabodo chala ishlarim bo'lsa, uiarni, albatta, boshqa kungi rejamga qo'shaman. Muhimi, yondaftar xotirani mustahkamlaydi. Yozib qo'yilgan narsaga qarasa, xotira rivojlanadimi, deysizmi?

Yo'q, lekin yozayotganimda ular miyamga o'rnamshadi. Shunchalik mustahkam o'rnamshadiki, ba'zan ertasi kuni yondaftarimga qarashga hojat qolmaydi.

Yondaftar tutishni boshlagach, o'zingizda ijobiy o'zgarishlar sezasiz. Ilgari to'planib ketadigan muammolaringiz tartib bilan hal bo'laveradi. Chunki siz hammasini yondaftaringizga sanasi va vaqti bilan yozib qo'ygansiz-da!



Yondaftaringizga vazifalarni aniq vaqti, muhimligiga qarab ketma-ketlikda biting. Shunda ishingiz barakali bo'ladi. To'g'ri, qandaydir tasodifiy vaziyatlar hisobiga kuningiz rejadagidan farqliroq bo'lishi tabiiy. Lekin, muhimi, siz palapartish kunlardagidan ko'ra ko'proq natijaga erishasiz. Qadrdonim, xohlasangiz, kundaligingizdagi ishlarni darajalab, muhimlarini qizil rangda ajratib yozing, tagiga chizing, ulardan keyingilarini esa kuningizning bo'sh qolayotgan qismiga joylashtiring. Istasangiz, har bir sananing tagiga sizni ruhlantiradigan, olg'a undaydigan jummalarni yozib qo'ying. Ularning ham kayfiyatingiz, ham ish unumingizga ta'siri katta.

Bilasizmi, men yondaftar tutmagunimcha o'qishda, to garaklarda, uy ishlari va hatto do'stlarim bilan o'ynashimda ham tartib bo'lmagan. Bir ishni boshlasam, nuqul ikkinchisi xalal bergan, uchinchisi chala qolgan. Ammo yondaftar barchasini o'zgartirdi. Men o'z vaqtida to'garaklarga qatnashga, maktab darslarini bajarishga, uy ishlarini qilishga, har kuni 20-30 bet kitob o'qishga, sevimli filmlarimni ko'rishga, hatto o'rtoqlarim bilan o'ynashga ham imkon topdim. Natijada baholarim a'lo, ishim unumli bo'ldi. O'zimga ishonchim ortdi. Dangasalikdan qutuldim. A'lo bahoga o'qib, akademik litseyga, keyin universitetga o'qishga kirdim. Lekin hamon yondaftarim yonimda.

Ha, aytgancha, yondaftar xarid qilishda ko'zingizga eng chiroyli ko'ringanini oling. Har safar unga qaraganingizda ko'zingiz quvnab, qo'lga olgingiz kelaveradi. Keyinchalik u qadrdoningizga aylanganini sezmay qolasiz. Axir menda shu hoi kuzatildi-da! Bugun erishayotgan yutuqlarim uchun chin do'stga aylangan yondaftarimdan minnatdorman.

Muhammadali Po'latov

Quyidagi so'zlarnin^ ma'nosini taxminan yozing va lug'atdan tekshiring.

So'zlar	Taxminim	Lug'atda
asqatmoq	***	***
ruhlantirmoq	***	***
bitmoq	***	***
palapartish	***	***
unum	***	***

Matn mazmuni asosida chiqarilgan xulosalarning qay biri to'g'ri ekanini aniqlang. Javoblaringizni izohlang.

- Maqola muallifi akademik litseyga kirganidan buyon yondaftar tutishni odat qilgan.
- Maqola muallifi ancha yillardan beri yondaftar tutishni odat qilgan.

A. Yozib qo'yilgan narsaga qarasa, xotira mustahkamlanadi.

B. Ma'lumotlarni yozib qo'yish xotirani mustahkamlaydi.

A. Har bir sananing tagiga insonni ruhlantiradigan jumlani yozib qo'yish ish unumi oshishiga yordam beradi.

B. Har bir sananing tagiga insonni ruhlantiradigan jumlani yozib qo'yish kunning tartibli o'tishiga yordam beradi.

A. Yaxshi bahoga o'qish, vaqtdan unumli foydalanish insonda o'ziga bo'lgan ishonchning ortishiga sabab bo'ladi.

B. Yondaftar tutishni odat qilgan bolaning o'ziga ishonchi boshqalarnikidan balandroq bo'ladi.

A. Yillar o'tishi bilan yondaftar o'z egasining ishonchli do'stiga aylanadi.

B. Yillar o'tishi bilan yondaftar atrofingizda do'stlar ko'payishiga yordam beradi.

Gaplar orasidan tavsiya mazmuniga ega bo'lganlarini ajratib yozing.

Kun davomida bajarilishi kerak bo'lgan barcha vazifalarni aniq vaqti bilan yozing. Har kecha uyqudan oldin ertaga nimalar qilishimni yozib qo'yaman, ertasiga kechqurun ularning qaysilarini bajarganimni belgilab chiqaman.

Kun davomida bajarilishi rejalashtirilgan vazifalarni muhimligiga qarab ketma- ketlikda yozing.

Kundalikdagi ishlarni darajalab, muhimlarini qizil rangda ajratib yozing.

Mabodo chala ishlarim qolib ketsa, ularni keyingi kungi rejalarimga qo'shaman.

Har bir sananing tagiga insonni ruhlantiradigan jummalarni yozib qo'ying. Yondaftar xarid qilishda ko'zingizga eng chiroyli ko'ringanini oling.

7-topshiriqdagi tavsiya mazmuniga ega bo'lmagan gaplarni tavsiya mazmunidagi gapga aylantirib yozing.

Har kecha uyqudan oldin ertaga nimalar qilishimni yozib qo'yaman, ertasiga kechqurun ularning qaysilarini bajarganimni belgilab chiqaman.	1. Har kecha uyqudan oldin ertaga nimalar qilishingizni yondaftaringizga yozing. 2. ...
***	***

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

1. Maqola muallifi kundalik ishlarni muhimligiga ko'ra tartiblab yozishni tavsiya qilyapti. Siz kun tartibingizdagi qaysi ishlarni birinchi o'ringa yozgan bo'lar edingiz?

2. Yondaftar tutishning foydali jihatlari haqida gapiring.

3. Nima uchun matnda ko'zga eng chiroyli ko'ringan yondaftarni xarid qilish tavsiya etilmoqda?

4. Muallif ushbu matnni yaratishdan qanday maqsadni ko'zlagan bo'lishi mumkin?

V. Darsni yakunlash: o'quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: Diqqat, loyiha!

“Orzular sari dadil qadamlar” mavzusidagi taqdimotga tayyorlaning. Taqdimotni tayyorlash uchun siz 8 bosqichdan iborat topshiriqlar ketma-kettigini bajarib borishingiz kerak. 1-bosqich. Orzularingiz ro'yxatini yondaftaringizga namunadagidek yozing.

Namuna: Kompyuter sotib olishni xohlayman. Velosipedim bo'lishini orzu qilaman. Shifokor bo'lishni maqsad qilganman.

O'IBDO': _____ (imzo) _____ (sana)

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o‘zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.

Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi

74 listdan iborat ona tili fanidan 5-sinf IV chorak konspektini to‘loq holda olish uchun telegramdan yozing.




Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To‘lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!
Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**